

TURIZM MARKETINGINING GLOBAL MUAMMOLARI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM MASALALARI

Ahmadullayev Bekzodjon Hakimovich

Annontatsiya: *Turizm marketingi hozirgi kunda dunyo mamlakatlari xizmat ko'rsatish sohasining eng yirik yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda.*

Kalit so'z: *jihat, ekologik, nafaqat, tarixiy, e'tibor.*

Turizm marketingi o'zining jozibadorligi va ijtimoiy, psixologik hususiyatlari bilan bugungi kunning eng dolzarb mavzusi ekanligi bilan ahamiyatli. Uning iqtisodiyotning boshqa sohalaridan ustun jihatlari shu bilan ifodalanadiki, turli taraqqiyot bosqichida bo'lgan barcha mamlakatlarda ham rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligidir. Buni nafaqat, tarixiy joylar, balki, geografik joylashuv, iqlim va ob-havo sharoiti, ba'zi hollarda, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy yoki ekologik muammoli, hatto, ekstremal sharoitdagi hudud hamda xilma-xil uslublarda qurilgan inshootlar ham sayohat ob'yektiga aylangan holda byudjetga daromad keltirishida ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda turizmnинг, nafaqat, tarixiy yoki an'anaviy, balki, yangidan-yangi turlari, shakl hamda ko'rinishlari vujudga kelmoqdaki, bu yangi tendensiyalar mazkur sohani valyuta kirib keluvchi manba sifatidagina emas, mintaqaviy rivojlanishning asosiy faktorlaridan biri deb qabul qilinishiga olib kelmoqda.

Shu sababli, keyingi vaqtida dunyo mamlakatlari qisqa muddatlarda katta daromad keltiruvchi moliyaviy sohalar bilan bir qatorda turizmg'a ham davlat darajasida katta e'tibor qaratmoqda. Mazkur jarayonlarda rivojlangan mamlakatlar turizmning yangi yo'nalishlari va qirralarini ochgan holda soha uchun yangi qonuniyatlarga asos bo'luvchi chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi sub'yekt sifatida qatnashsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning ba'zilari turizmni iqtisodiyotning "lokomotiv" sohasi, yana boshqalari esa valyuta kirimi manbalaridan biri sifatida rivojlantirish, shuningdek, mamlakatni dunyoga tanituvchi sohalardan biri sifatida qarashi bilan turizm biznesida ishtirok etmoqda. Bu esa globallashuv davrida vaqt o'tishi bilan sohaning yangicha ko'rinishlari va sifat ko'rsatkichlari yuzaga kelishiga sabab bo'lib, uni mutazam kuzatib borish, statistikasini yuritish, tahlil qilish va tartibga solish

ishlarini amalga oshirish jarayonini tobora qiyinlashtirib bormoqda. Turizm statistikasining mukammal va sifatli bo'lishi, ma'lumotlarning shaffofligi mamlakatga, nafaqat, chet el investorlari, balki, rezidentlarining ham qiziqishini uyg'otadi.

Bunda, eng avvalo, turizmni rivojlantitishdagi chigal masalalardan biri xalqaro miqyosda sohaga oid bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish bo'lib, har qanday holatda — mazkur sohaga yangi kirib kelgan investorlarni jalg etish yoki xalqaro hisob-kitob ishlarini olib borish uchun ham to'liq va ishonchli, doimo ochiq bo'lgan ma'lumotlarni olish zarur bo'lib hisoblanadi [5]. Ammo, xalqaro miqyosda statistik ma'lumotlarni jamlash jarayonida huquqiy-me'yoriy hujjatlar bilan ishslash dunyo mintaqalari, hattoki, mamlakatlarida turlicha bo'lib, bu sohani rivojlantirish hamda boshqarishni takomillashtirish yo'lidagi eng katta muammolardan biridir .

Mazkur muammo o'z yechimini topishi natijasida dunyo bo'yicha, mintqa va turli mamlakatlarda turizm rivojlanishi qonuniyatları hamda o'zgarishlarini amaliyotga vaqt hamda hudud talqinida tadbiq etish kabi imkoniyatlarni beradi. Shu tufayli 1980–90 yillardan buyon mazkur muammoga xalqaro miqyosda e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 1998-yilda Butunjahon Turizm Tashkiloti tomonidan “Turizm bo'yicha iqtisodiy Hisobot” nashri e'lon qilinib, uning bir bo'limi sohaning aynan shu muammosiga bag'ishlandi [1, c. 211]. Bundan tashqari, Butunjahon Turizm tashkilotining Ottavada o'tgan konferensiyasida “Turizm statistikasi bo'yicha tavsiyalar” tayyorlanib, BMT ning Statistika Kengashiga taqdim etildi. Mazkur tavsiyalarning qabul qilinishi va uning barcha mamlakatlarda amal qilishi turizm sohasida statistik faoliyatning takomillashtirilishida muhim ahamiyat kasb etadi[1].

Xususan, Rossiya Federatsiyasida sayyoohlar hisobi 2014-yil 12-avgustda qabul qilingan “Sayyoohlik oqimlari kirish va chiqish hisobini baholash rasmiy statistik baholash” tizimi bo'yicha olib boriladi [7]. Markaziy Osiyo mamlakatlaridan biri bo'lgan Qozog'istonda ham sayohatchilar fuqarolik hamda turar joydan ma'lum muddatga uzoqlashish talablari bo'yicha hisoblangan bo'lsa, mamlakatning yangi hisoblash tizimiga o'tishi natijasida, ya'ni yuqoridagi talablarga sayohatchining maqsadiga ko'ra tasniflash talabi ham qo'shilganidan so'ng ularning sonida kamayish va sohaning o'sish tendensiyalarida sustlashish kuzatildi.

Bundan tashqari, “haqiqiy” sayyoohlar soni kamayganiga mos ravishda Qozog'iston Respublikasi eksportida turizm ulushi o'tgan yilga nisbatan 9.6 foizga

pasaygan. Qo'shni respublikada sayyoohlar qatoriga, nafaqat, dam olish maqsadida bo'lgan aholi qatlami, balki, biznes sayohat, do'stlar yoki qarindoshlarni ziyorat qilish maqsadida mamlakatga kirib kelayotgan yoki chiqib ketayotgan aholi qatlami ham kiritilib, Butunjahon Turizm Tashkiloti tomonidan e'lon qilingan manbalar bo'yicha (mamlakatning hisoblash usullari bo'yicha) 2017-yilda sayyoohlarning 40 foizi qarindoshlari yoki do'stlarini ziyorat qilish va biznes maqsadida chegaralarni kesib o'tgan. Sayyoohlarning qolgan barchasi sof turistlar bo'lib, turli turistik xizmatlardan foydalangan. Ammo, Qozog'iston Respublikasi chegara xizmati ma'lumotlariga ko'ra, barcha kirib kelishlarning 78 foizi yaqinlarni ziyorat qilish bo'lib, 20 foizi biznes turizm, bor-yo'g'i 2 foizi "sof" turistlar bo'lib hisoblanadi [8].

Bu kabi hisoblash usuli yaqinlarni qo'shni mamlakatlarda yashab istiqomat qilgani hisobiga qaysidir ma'noda "majburiy" sayohat-migratsiyasi bo'lib hisoblanib, uning katta ulushga ega ekanligi va Butunjahon Turizm Tashkilot tomonidan "sayohatchi" sifatida hisobga olish uchun qo'yilgan talablarning barchasiga javob berishi mamlakatning ularni ro'yxatga olishi uchun imkon yaratib beradi. Ammo, ular kirib borgan hududda katta miqdorda mablag' sarflamaydi. Shu sababli ham mamlakatga turli boshqa ta'sirlarsiz o'z xohishiga ko'ra tashrif buyurgan xorijiy sayyoohlarnigina hisobga olish ishlari, nafaqat, Markaziy Osiyo mamlakatlaridan O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, MDH mamlakatlaridan Gruziya, Rossiya, shuningdek, Turkiya, balki, hozirgi vaqtda dunyoning bir qator rivojlangan mamlakatlari, jumladan, Birlashgan Arab Amirliklari, Buyuk Britaniyada ham qo'llaniladi[2]. O'zbekistonda aholining qo'shni mamlakatlar bilan yaqin qarindoshchilik aloqalarining yuqoriligi natijasida shunday maqsad bilan yurtimizga kirib kelayotgan sayyoohlar soni sezilarli darajada ko'p.

Ammo, ularni maqsadiga ko'ra tasniflash jarayonida faqatgina bojxona deklaratsiyasiga asoslanilishi sayyoohlarning maqsadiga ko'ra turlarini aniqlash imkonini bermaydi. Natijada, jamlangan axborot "sof" turistik maqsadlarda kirib kelayotgan sayyoohlar orasida chuqur tahliliy tasniflash ishlari olib borilishiga imkon bermaydi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, hozirgi kungacha bu hisoblash usullari shartli bo'lib, barcha mamlakatlar o'z hisoblash tartibiga ega. Xususan, jahon mamlakatlarining 40 foizi qo'shni mamlakatlardan kirib kelgan ekskursantlar (bir kunga mamlakatga sayohatchi sifatida kirib kelgan shaxs) va mintaqalari bo'ylab turistlar bilan sayohatni amalga oshirayotgan gid-ekskursovodlarni sayohatchi

sifatida hisoblamaydi. O'n foiz mamlakatlar esa ish maqsadida kirib kelganlar — biznes sayohatchilarni bu hisobdan chiqarib tashlaydi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, keyingi yillarda sayyoohlarni hisobga olish tizimida Yevropa Ittifoqining ko'pgina mamlakatlarida nisbatan ancha takomillashgan uslub yo'lga qo'yilgan bo'lib, mazkur usul yordamida mintaqada sayyoohlilik ishlarini tartibga solish ishlari birmuncha osonlashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Уринова, Н. М., & Хусеинова, С. Б. (2021). Теоретико-практическая подготовка будущих учителей гуманитарного профиля к социально ориентированной воспитательной работе. Бюллетень науки и практики, 7(5), 434-440.
2. Botirovna, X. S. (2023). "TARBIYA" FANI ORQALI TAYANCH MA'NAVIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA O'QITUVCHI-O'QUVCHILAR HAMKORLIK FAOLIYATI. Science and innovation, 2(Special Issue 12), 567-569.
3. Khamidovna, P. O. (2021). Students develop communication culture pedagogical-psychological factors. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).
4. Khamidovna, P. O. (2023). Communication Culture of Individuals. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 4(4), 25-28.
5. Khamidovna, P. O. (2021). Methods of teaching young people to communication in pedagogical activity. Journal of Academic Research ISSN, 2181(2020), 26.
6. Khamidovna, P. O., Saidovna, R. D., & Bakhtiyorovna, Y. B. (2021). THE ROLE OF COMMUNICATION AND INDEPENDENT THINKING IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'CREATIVE ABILITY. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).
7. Gulomov, K. K. (2023). PEDIATRIC STROKE DIAGNOSIS: CURRENT CHALLENGES AND FUTURE PERSPECTIVES. Экономика и социум, (12 (115)-1), 256-260.
8. Ogli, N. A. K., & Qahhoral, G. (2024). IMPROVEMENT OF SURGICAL TACTICS AND TREATMENT OF COMBINED INJURIES IN CHILDREN. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 4(5-2), 17-21.
9. Abdumuminov, B. R., Eminov, R. I., & Gulomov, K. K. (2023). UNDERSTANDING FETAL CIRCULATION AND THE TRANSITION TO

POSTNATAL CIRCULATION: SHUNTS, PLACENTA, AND CONGENITAL HEART DEFECTS. Экономика и социум, (6-1 (109)), 14-21.

10. Gulomov, K. K., Juraev, S. B., Khamdamov, R. A., Kholikov, B. M., & Meliboev, R. A. (2025, February). IMPROVING THE TREATMENT OF COMPLICATIONS IN ENDouroLOGICAL OPERATIONS FOR UROLITHIASIS. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY (Vol. 2, No. 1, pp. 31-33).
11. Ugli, G. K. K. (2025, February). SUBACUTE SCLEROSING PANENCEPHALITIS IN KIDS: EEG & MRI TRENDS PRE-AND POST-2023. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY (Vol. 2, No. 1, pp. 28-30).
12. Zokirjonov, D. Z., & G'ulomov, Q. (2025). THE SIGNIFICANCE OF VITAMIN D LEVELS ON MUSCULOSKELETAL STRENGTH, ATHLETIC PERFORMANCE, AND INJURY PREVENTION. JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH, 2(4), 419-430.
13. Ugli, G. K. K. (2025). CHARACTERISTIC EEG PATTERNS IN SSPE AND THEIR CORRELATION WITH CLINICAL STAGES. ORIENTAL JOURNAL OF MEDICINE AND NATURAL SCIENCES, 2(2), 26-30.
14. Zokirjonov, D. Z., & G'ulomov, Q. (2024). THE SIGNIFICANCE OF VITAMIN D LEVELS ON MUSCULOSKELETAL STRENGTH, ATHLETIC PERFORMANCE AND INJURY PREVENTION. JOURNAL OF MEDICINE AND PHARMACY, 7(12), 16-27.
15. Isroiljonov, S., & Tadjibaeva, D. R. (2021). Study of the energy potential of the heart of college students through the energy potential of the heart. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1083-1088.
16. Таджибаева, Д. Р. (2023). СРАВНЕНИЕ УРОВНЯ ФИЗИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ОРГАНИЗМА МЕСТНЫХ СТУДЕНТОВ ГРАЖДАН УЗБЕКИСТАНА И ИНОСТРАННЫХ СТУДЕНТОВ ГРАЖДАН КЫРГЫЗСТАНА. Universum: химия и биология, (12-1 (114)), 62-66.
17. Таджибаева, Д. (2024). Методы исследования генетики человека. Общество и инновации, 5(8/S), 118-122.
18. Tadjibayeva, D. (2024). INSON TANASINING JISMONIY HOLAT DARAJASI. TAMADDUN NURI JURNALI, 8(59), 305-307.